



GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLARDA ALTRUIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY AHAMIYATI

Tursunova Gavhar Begmurodovna
Samarqand davlat universiteti o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqola altruizmning mohiyatini ochib beradigan yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, altruizm tushunchasining ijtimoiy-falsafiy tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda altruizm tushunchasining falsafiy tahlili, altruizm tamoyillari, altruizmning mohiyati, yoshlarda altruizmni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili oid masalalar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: altruizm, altruizm tushunchasi, hamdardlik, empatiya, altruistik sifatlar.

СОЦИАЛЬНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ АЛЬТРУИЗМА У МОЛОДЕЖИ В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация: В данной статье анализируются подходы, раскрывающие сущность альтруизма. Также посвящено социально-философскому анализу понятия альтруизм, в котором рассматриваются вопросы, связанные с философским анализом понятия альтруизма, принципами альтруизма, сущностью альтруизма, социально-философским анализом развития альтруизма. у молодых людей выделены.

Ключевые слова: альтруизм, понятие альтруизма, симпатия, сопереживание, альтруистические качества.

SOCIAL SIGNIFICANCE OF DEVELOPING ALTRUISM IN YOUTH IN THE PROCESS OF GLOBALISATION

Abstract: This article analyzes approaches that reveal the essence of altruism. It is also dedicated to the socio-philosophical analysis of the concept of altruism, in which issues related to the philosophical analysis of the concept of altruism, the principles of altruism, the essence of altruism, the socio-philosophical analysis of the development of altruism in young people are highlighted.

Key words: altruism, the concept of altruism, sympathy, empathy, altruistic qualities.

Kirish. Ilmiy manbalarda altruizmning ta’rifi juda xilma xil. Qoida tariqasida, bu boshqa odamlarga g‘amxo‘rlik qilishda ifodalangan xatti-harakatlar sifatida tushuniladi. Globallashuv jarayoni tobora jadallashib borayotgan bugungi davrda yoshlarda altruizmni rivojlantirishni,

ularda jo‘mardlik va oliyjanoblikka asoslangan ijtimoiy faollikni, yurtga sadoqat va shaxsiy mas’uliyatni oshirishning ilmiy usullarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Ayni paytda yoshlarda yuksak axloqiylik, insonparvarlik va altruistik fazilatlarni rivojlantirishning yangicha modellarini yaratish zaruriyati paydo bo‘lmoqda.

Hozirgi davrda jamiyatimizning barcha sohalariga glaballshuv jarayoni kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda, jumladan yoshlar orasida altruizmning shakllanishiga ham. Altruizm, ya’ni o‘zgalarga yordam berish istagi va bu yordamni amalga oshirish xatti-harakatlari, globallashuvning madaniy va ijtimoiy oqimlari orqali yangi shakllarini kasb etadi. Bugungi kunda jahonda egoistik sifatlarni kuchayib ketishi, individualizm xarakterining yoyilishi jamiyat oldiga yangicha vazifalarni qo‘ymoqda. Insonlarda xudbinlik bilan bog‘liq xususiyatlarning shakllanishi va faqat o‘zini o‘ylaydigan yoshlarning ulg‘ayish jarayoni yuzaga kelgani sababli insoniyat oldidagi global ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Bunday vaziyatda har bir jamiyatda altruistik sifatlarga ega yoshlarni tarbiyalashdagi vazifalarni ustuvorligi kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy adabiyotlardan ma’lumki altruizm, mukofot kutmasdan, boshqalarning farovonligi uchun fidokorona g‘amxo‘rlik qilish ma’nosini bildiradigan tushunchadir. Altruizm - bu bir odam boshqa odamlarning farovonligiga g‘amxo‘rlik qiladigan yaxshi ishlarni bajaradigan xatti-harakatlar tamoyilini anglatadi. Aslini olganda, altruizm tamoyili “boshqalar uchun yashash”dir.

Insonning fazilatlari qadimgi mutafakkirlar tomonidan muhokama qilingan. "Altruizm" atamasi faqat XIX asrda paydo bo‘lgan. U faylasuf va sotsiolog Ogyust Konte tomonidan fanga kiritilgan bo‘lib, bu so‘z bilan boshqalar uchun hayotni yuksak axloq tamoyili sifatida anglatadi degan fikrni ilgari surgan. N.Nitshe altruizمنى qabul qilmadi, chunki u buni "qullarning axloqi" ning namoyon bo‘lishi sifatida qaragan. Freyd boshqalarga beg‘araz yordam aybdorlik tuyg‘usini davolaydi, deb hisoblagan.

Mazkur tushunchaga ilmiy adabiyotlarda shunday ta’rif beriladi:

Pedagogik lug‘atida altruizm tushunchasiga quyidagicha tariff beriladi: “Altruizm - axloqiy tushuncha, insonning o‘z manfaatlaridan voz kechib, boshqalar manfaati, baxt-saodati yo‘lida beg‘araz xizmat qilishini anglatadi. Bu tushuncha Sharqda jo‘mardlik atamasi bilan bir necha asr avval qo‘llanilgan. O‘rta asrlarda Sharq xalqlarida jo‘mardlik, insonparvarlik va vatanparvarlikni targ‘ib qiluvchi tasavvuf tariqatlaridan biri sifatida o‘zining falsafiy, tarbiyaviy asosiga ega bo‘lgan. Altruizm shaxsning ma’naviy jihatdan o‘z-o‘zini baholashi, xudbinlikdan voz kechishini bildiradi” [1,54].

Falsafa qomusiy lug‘atda altruizm tushunchasi “(frans. Altruisme, lot. Alter- boshqa) - egoizmga qarshi axloqiy prinsip bo‘lib, u boshqa kishilarga beg‘araz xizmat qilishdan, ularning baxt-saodati uchun o‘z shaxsiy manfaatlarini qurbon etish” sifatida ta’riflanadi. Shuningdek, yana “altruizm tushunchasi, odatda, yaqinlarga, mehrmuhabbat bilan qarash, odamlarning xatolarini kechirish, o‘zining qadr-qimmatini chetlab o‘tib, o‘y-fikr va xatti-harakatini boshqalar hayotiga bag‘ishlash, o‘zini tamomila unutishni anglatadi”. Altruizmga ko‘ra,

“boshqalar uchun yasha” - bu ibora kelajakda axloqiy talabning epigrafi bo‘lib qolmog‘i kerak” [2, 22].

Milliy madaniyat va an‘analar yoshlar orasida altruizmni shakllantirishda asosiy o‘rinni egallaydi. Bu jarayon globallashuv ta‘sirida keng ko‘lamli o‘zgarishlarga duch keladi. Xususan, turli madaniyatlararo ta‘sirlar natijasida yoshlar o‘zlarining altruistik qarashlarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Yoshlarning altruizmni rivojlantirishda milliy madaniyatning roli, an‘anaviy qadriyatlar va oilaviy tarbiyaning ta‘sirini ko‘rsatadi. Masalan, turk madaniyatida oilaviy qadriyatlar, o‘zaro yordam va hamkorlik kabi altruistik harakatlar muhim hisoblanadi.

Rus madaniyati ham altruizmni shakllantirishda o‘ziga xos yondashuvlarni taklif etadi. Oilaviy bog‘liqlik va jamoaviy ruh, yordam va qo‘llab-quvvatlashni ta‘kidlaydi, bu esa globallashuv davrida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada A.S.Makarenko asarlari, ayniqsa, uning "Pedagogik poema" asari yoshlarda jamoaviy mehnat orqali o‘zaro yordam va hamkorlikni rivojlantirish g‘oyalarini ilgari suradi.

Yevropa madaniyati, ayniqsa g‘arbiy madaniyat, shaxsiy erkinlik va individualizmni ta‘kidlash bilan birga, jamiyatdagi har bir a‘zoning mas‘uliyatini ham muhim deb hisoblaydi. Jumladan, P.Singer kabi olimlar altruizmni global miqyosda qarash va uni faqat milliy chegaralar ichida emas, balki butun insoniyat manfaatida ko‘rib chiqish kerakligini ta‘kidlashadi. Singer o‘zining "The Life You Can Save" asarida moliyaviy imkoniyatlar yuqori bo‘lgan shaxslarning kam ta‘minlanganlarga yordam berishdagi o‘rni va mas‘uliyatini yoritib beradi. [3].

Amerikalik olim R. Putnamning "Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community" asarida ham yoshlar orasida jamoaviy faoliyat va ko‘ngillilikning muhimligi ta‘kidlanadi. Uning tahlillari asosida yoshlar orasida ko‘ngillilik faoliyatlarini targ‘ib qilish orqali ularning jamiyatdagi faolligini va o‘zaro yordam ruhini oshirish mumkinligi ko‘rsatiladi. [4].

Shu bilan birga, globallashuv jarayonida milliy madaniyatlar o‘rtasida o‘zaro ta‘sir va integratsiya kuchayadi, bu esa turli madaniyatlarning altruistik qadriyatlarini universallashtirishga olib keladi. Yoshlarning globallashuv sharoitida o‘z madaniyatlari va dunyoqarashlarini qanday qilib sinchkovlik bilan tanlash va qabul qilishlari, ularning altruistik xulq-atvorini yanada boyitadi va chuqurlashtiradi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi jamiyatdagi eng og‘ir muammo bu yosh avlod tarbiyasidir. Bu tarbiya zahirida altruizm kabi g‘oyalarning o‘rni benihoya katta. Jamiyatning ma‘naviy hayoti shaxsning ma‘naviy qiyofasi bilan bog‘liqdir. Shaxs ma‘naviy qiyofasida esa altruizm kabi g‘oyalar o‘rni salmoqli ekanini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda. Insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning manfaat ustida qurilishi, jamiyatni chok-chokidan yemiradigan illatdir. Shu bois bu illatdan qutulmoq kerak. Buning uchun esa insonda altruistik dunyoqarash shakllangan bo‘lishi kerak. Yoshlarda jo‘mardlik sifatlarini, o‘zgalarini o‘ylashga, qayg‘urishga, o‘zgalar manfaatini toptamaslik, ustun qo‘yishga qaratilgan fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan

tarbiya jarayoni juda kerakli, bugungi zamon talabi va ijtimoiy barqarorlik asosi hisoblanadi. Chunki altruistik sifatlarni shakllantirish orqali ularda

jamoaviylik, birdamlik, boshqalar manfaatini o‘zining manfaati bilan mushtarkalikni his qilishi, halollik, vijdonlilik va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish mumkin bo‘ladi. Shuningdek, faqat o‘zini o‘ylaydigan, xudbin farzandlari bor millatning taqdiri taraqqiyotga daxldor emasligini tarixiy taraqqiyot isbotlab berayotgan vaziyatda jamiyatda yuksak axloqiy fazilatlarni, altruistik sifatlarni shakllantirish dolzarb vazifadir.

Yoshlarda altruistik fazilatlarni shakllantirishda quyidagi masalalarga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- yoshlarda egoistik sifatlarni kuchayib ketmasligi, xudbinona illatlar ta’siriga tushib qolmaslik va faqat o‘zini o‘ylaydigan, jamiyatga nafi tegmaydigan, fidoyilik va sadoqatlilik tushunchalaridan yiroq kishilar shakllanishini oldini olishning eng samalari usuli ularda bu illatlarning aksini rivojlantirishga qaratilgan jarayonidir.

- jamiyatda ijtimoiy birdamlikni, hamjihatlikni shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonida, boshlang‘ich ta’limdanoq singdirilgan jamoaviylik, birdamlik, oliyjanob insoniy sifatlarni shakllantirishga bog‘liq bo‘ladi.

- yoshlarda individualizm bilan bog‘liq sifatlarga qarshi altruistik fazilatlarni shakllantirish dolzarblik kasb etmoqda. Chunki individualizm xarakterini ortib borishi oila, jamoa, jamiyatda bo‘linish, parokandalikni keltirib chiqarishi mumkin. Inson uchun oila, nikoh, jamoa manfaatlari, jamiyat normalari qadsizlanadi va inkor qilinadi. Bugungi kunda globallashuv jarayonining keng ko‘lam kasb etishi, madaniyatlar muloqotining kengayishi va qadriyatlarining qadsizlanishi sharoitida O‘zbekistonda individualizmni xarakterini shakllanishiga qarshi yuksak axloqiy sifatlarni, jo‘mardlikni zarurati ortib bormoqda. Jarayonda maskur masalalrni ham inobatga olish zarur.

- bugungi global axborot maydonida ijtimoiy munosabatlarda begonalashuv fenomeni keng ko‘lam kasb etib, insonlardagi ijtimoiy yolg‘izlik, begonalik hususiyati ijtimoiy mas’uliyatni, daxldorlik tuyg‘ularini sindirib yubormoqda. Shu bois insoniyat oldida yangi bir muammo - begonalashuvni bartaraf etish va insonlarda hamjihatlik, birdamlik va munosabatlarda birodarlik muhabbatini shakllantirish vazifalari yuzaga chiqarmoq zarur.

- yoshlarda kamtarlik, oliyjanoblik, mardlik, sahovatpeshalik, birodarlik sifatlarini shakllantirish ham ijtimoiy masala bo‘lib qolmoqda.

- yoshlarda yuksak axloqiylik fazilatlarini shakllantirish, altruistik fazilatlarni shakllantirish orqali ularda ijtimoiy munosabatlarga, vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘ularini o‘stirish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv va yoshlar orasida altruizmni oshirish strategiyalari ko‘plab yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Ta’lim tizimining o‘zgarishi, oilaviy tarbiya, ijtimoiy media va texnologiyalar, shuningdek, xalqaro dasturlari bu yo‘lda muhim rol o‘ynaydi. Bu strategiyalarni amalga oshirish orqali yoshlar orasida altruistik qadriyatlarni shakllantirish va

ularni ijtimoiy mas’uliyatli fuqarolar qilib tarbiyalash mumkin. Shu bilan birga, bu jarayon jamiyatning barqaror rivojlanishiga va global miqyosda ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pedagogika. Ensiklopediya. 1-jild. -Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. –B. 54.
2. Falsafa qomusiy lug‘at. Toshkent.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2004, -B. 54.
3. Kraut, Richard (2020), "Altruism", in Zalta, Edward N. (ed.), The Stanford Encyclopedia of Philosophy (Fall 2020 ed.), Metaphysics Research Lab, Stanford University, retrieved 16 January 2024.
4. MacAskill, William (2017). "Effective Altruism: Introduction". Essays in Philosophy. 18 (1). doi:10.7710/1526-0569.1580.